MILLIY MEROS AKADEMIYASI
NATIONAL HERITAGE ACADEMY

MADANIYATSHUNOSLIK
VA NOMODDIY MADANIY MEROS
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

“Asliyat — asl manba, asl qadriyat, asl meros”

ASLIYAT

ILMIY AXBOROTNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

Ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy jurnal



2026

1-JILD | 1-SON

ASLIYAT
Ilmiy axborotnomasi
https://ijacaes.uz/index.php/Asliyat/index

YANGI MADANIY MAKONNI YARATISH VA BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASH IMKONIYATLARI

Gularo Nishonboyeva,
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi, falsafa fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yurtimizda yangi madaniy makonni yaratish va uning barkamol avlodni tarbiyalash jarayoniga ta'sirini oshirishning muhim omili ekanligi, Yangi O'zbekistonni barpo etishdek ulug' maqsadni amalga oshirishda ko'plab omillar qatori, madaniy taraqqiyot tamoyillariga ham alohida e'tibor qaratilganligi yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *yangi madaniy makon, madaniy taraqqiyot, tarbiyaviy samaradorlik, kulturologik yondashuv, falsafiy dunyoqarash, madaniy-ma'rifiy rivojlanish, realizatsiya, innovatsion texnologiya.*

Аннотация. *В данной статье подчеркивается важность создания нового культурного пространства в нашей стране и усиления его влияния на процесс воспитания гармоничного поколения, а также тот факт, что среди многих факторов особое внимание уделяется принципам культурного развития в достижении великой цели построения Нового Узбекистана.*

Ключевые слова: *новое культурное пространство, культурное развитие, эффективность образования, культурологический подход, философское мировоззрение, культурное и образовательное развитие, внедрение, инновационные технологии.*

Abstract. *This article emphasizes the importance of creating a new cultural space in our country and strengthening its influence on the process of raising a harmonious generation, as well as the fact that, among many factors, special attention is paid to the principles of cultural development in achieving the great goal of building a New Uzbekistan.*

Keywords: *new cultural space, cultural development, educational effectiveness, culturological approach, philosophical worldview, cultural and educational development, implementation, innovative technology.*

Keyingi yillarda hayotimizning barcha sohalari qatori mamlakatimizda yangi madaniy makonni yaratish yo'nalishida ham keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi, ulkan yangilanishlar ro'y berdi, salmoqli natijalar qo'lga kiritilmoqda. Bu jabhadagi siyosat, ya'ni Yangi O'zbekistonni barpo etishdek ulug' maqsadni amalga oshirishda ko'plab omillar qatori, madaniy taraqqiyot tamoyillariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu esa o'z navbatida, yurtimizda yangi madaniy makonni yaratish va uning barkamol avlodni tarbiyalash jarayoniga ta'sirini oshirishning muhim omiliga aylanmoqda.

O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida "Yangi madaniy makon" bugungi kunda yurtimiz hududida yaratilayotgan madaniy boyliklar, madaniyat sohasidagi jarayonlar va yangilanishlar, bu boradagi o'zgarishlar va islohotlarning natijalari aks etayotgan yangi madaniy muhitni anglatadigan falsafiy-kulturologik tushunchadir.

Bizning nazarimizda, “Yangi madaniy makon” tushunchasining bir-biri bilan dialektik aloqador va o‘zaro bog‘liq bir necha jihati, ya’ni umumbashariy va milliy, mintaqaviy va mahalliy jihatlari alohida e’tiborga molik.

Umumbashariy jihat deganda butun dunyoga xos global madaniy makon nazarda tutiladi, milliy jihat deganda esa, biror bir mamlakat, davlat yoki muayyan millat yoki xalq egallagan madaniy hudud e’tiborga olinadi.

Mintaqaviy madaniy makon deganda, masalan “Karib dengizi xalqlari madaniy makoni”, “Markaziy Osiyo madaniy makoni” yoki “Amudaryo va Sirdaryo havzasi madaniy makoni” kabi turli-tuman tushuncha va atamalarlarni ham ishlatish mumkin.

Mahalliy makon nazarda tutilganida, nisbatan tor va kichik hudud, o‘ziga xos yopiq muhitni anglatuvchi jihatlar nazarda tutiladi. Masalan, ilmiy adabiyotlarda o‘tgan asrlardagi xonliklar va amirlik davriga xos o‘tmish tariximizga nisbatan “Qo‘qon madaniy muhiti”, “Xorazm madaniy muhiti” va “Buxoro madaniy muhiti” kabi tushunchalar qo‘llanilishi ma’lum. Xuddi ana shu tushunchalar o‘sha davr mahalliy madaniy makonni anglatish uchun qo‘llanilayotgani shubhasiz.

Bugungi kunda ham respublikamiz xududi geografiyasiga nisbatan Qoraqalpog‘iston va Toshkent shahri, viloyatlar, vodiy va vohalarga tegishli madaniy muhit, ya’ni o‘ziga xos kichik madaniy makonlar haqida fikr yuritish mumkin.

Ushbu hududlarda madaniyat sohasida amalga oshirilayotgan samarali islohotlar, erishilayotgan yutuqlar jamlansa, umumrespublika madaniy makonida ro‘y berayotgan yangilanishlar va erishilayotgan islohotlar majmui yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Bularning barchasi esa, bugungi O‘zbekiston hududida yangi madaniy makon vujudga kelayotgani va uning tabora takomillashib borayotganini turli misollar yordamida isbotlash, xilma-xil dalillar va raqamlar bilan ifodalash imkonini yaratadi.

Ayni paytda, tobora globallashib borayotgan dunyo talablari va yangilanayotgan mamlakatimiz ehtiyojlari, yurtimiz hududlarini to‘laqonli rivojlantirish zarurati madaniyat omilining hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi zarurligidan dalolat beradi.

Bu boradagi siyosatda ushbu soha uchun e’tiborga olish doimo zarur bo‘lgan umuminsoniy, milliy va hududiy omillar, ular bilan bog‘liq ustuvor maqsad va vazifalar, jabha va yo‘nalishlarni aniqlash, shunga mos samarali faoliyat olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda yangi madaniy makonni yaratish jarayonida hisobga olish zarur bo‘lgan omillar haqida gap ketganida bir qator jihatlarni alohida ta’kidlash zarur,

Birinchidan, bu borada, ilgari ta’kidlaganidek, madaniyat nafaqat inson qalbi, balki ong-u shuurini ham yoritib turadi, vijdonini uyg‘otadi, yashashdan maqsadi va o‘zligini anglashga yordam beradi. U insonni tarixni o‘rganishga, ota-bobolarining kimligini bilishga va ularga munosib bo‘lishga, xalq va Vatan taqdiri uchun qayg‘urishga undaydi, kelajak haqida o‘yga toldiradi.

Bu jihatdan, jamiyatimizning bugungi kuni farovon, kelajagi yorug‘ bo‘lishi uchun xalq madaniyatini yanada yuksaltirish katta ahamiyatga ega ekanligi shubhasiz. Buning uchun madaniyat sohasida taraqqiyot tamoyillariga asos bo‘ladigan tayanch shart-sharoitlar bo‘lishi, ularni yaratish masalalariga alohida e’tibor qaratish talab etiladi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda madaniyatni yuksaltirish uchun tegishli moddiy-texnik baza yaratildi va bu jabhaga e'tibor kuchaydi. Ayni paytda ushbu sohada biz belgilab olgan maqsad va dolzarb vazifalar hammamizni ezgu niyatlar va amallarga undashi zarurligi, qalbimizda el-yurt va xalq taqdiri uchun mas'uliyat hissini mustahkamlashi uchun harakat qilish lozimligi davr talabiga aylandi.

Ikkinchidan, butun jahon miqyosida qabul qilingan ko'plab hujjatlarda ushbu sohaga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bu esa dunyo mamlakatlari, jumladan O'zbekistonning bugungi yangi davrdagi madaniy taraqqiyoti va istiqbolini belgilaydigan huquqiy asoslar va faoliyat dasturlarini yaratish hamda ularni butun mamlakat va uning hududlarida samarali amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etayotganini anglatadi. O'z navbatida bu xalqaro miqyosdagi hujjatlarni tez orada implementatsiya (biror bir g'oya, loyiha, algoritm yoki shartnomani amalga oshirish, ya'ni "realizatsiya" yoki "joriy etish" tushuniladi) va ulardan mamlakatimizda foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarurati yetilganidan dalolat beradi.

Dunyo sarhadlarining uzluksiz bir bo'lagi bo'lgan O'zbekistonning milliy hududiy taraqqiyoti, xususan xududlarni madaniy-ma'rifiy rivojlantirish sohasidagi siyosatida ham ushbu omil o'z o'rniga ega.

Shu munosabat bilan, o'zimizga bir savol berib ko'raylik: biz hozirgi keskin sharoitda g'oyaviy-mafkuraviy va madaniy-ma'rifiy sohalarda raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beryaptimi?

Davlatimiz rahbari alohida ta'kidlaganidek, bugun madaniy-ma'rifiy sohada bu masala o'tkir va ko'ndalang bo'lib turibdi. Bular odamni jiddiy o'ylantiradigan savollar. Agar biz bu yorug' dunyoda "o'zbek", "O'zbekiston" degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo'lsak, bu savollarga bugun javob topish va ularni hal etish bo'yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlash shart. Ertaga esa kech bo'ladi.

Bu yo'lda avvalo, Yangi O'zbekistonni, Uchinchi Renessans poydevorini, barcha hududlarimiz uchun umumiy bo'lgan yangi madaniy makonni barpo etish uchun, avvalo, uning mustahkam iqtisodiy, moddiy-texnik asoslarini yaratish kerak.

Uchinchidan, hozirgi vaqtda mamlakatimizda madaniyat va ma'rifat rivoji uchun mustahkam poydevor bo'ladigan barqaror iqtisodiyot chinakam bozor munosabatlari asosida tashkil etilmoqda. Barcha soha va tarmoqlarda davlat ishtiroki kamaytirilib, xususiy mulk va investitsiyalarga, davlat-xususiy sheriklik tamoyillariga keng yo'l ochilmoqda. Tadbirkorlar, fermer va klasterlar uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda. O'zbekistonda "majburiy mehnat", "bolalar mehnati"ga butunlay chek qo'yildi. Davlat buyurtmasi tizimi ham optimal holatga keltirilmoqda.

Barcha sohalarga raqamlashtirish, "yashil" va innovasion texnologiyalar jadal kirib bormoqda. Yurtimizda yangi-yangi zamonaviy sanoat va energetika majmualari, avtomobil va temir yo'llar, texnopark va IT-parklar, "aqlli" va elektron boshqaruv tizimlari barpo etilmoqda. Shahar va qishloqlarimiz, butun mamlakatimiz madaniy qiyofasi tubdan o'zgarmoqda. Qisqa muddatda maktab, maktabgacha ta'lim, oliy ta'lim, sport va turizm sohalarini rivojlantirish bo'yicha ulkan qadamlar qo'yildi.

Madaniy rivojlanish yo'nalishida Prezidentimizning 2023-yil 27-iyuldagi PF-114-son Farmoniga muvofiq Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-

metodik markazi asosida Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. Bu jabhada Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 368-son qarori qabul qilindi. Institut oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

- nomoddiy madaniy merosni har tomonlama muhofaza qilish;
- keng jamoatchilikni jalb etgan holda uning namunalarini aniqlash;
- nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro ro'yxatlar va reestrlarga kiritish;
- nomoddiy madaniy merosni raqamlashtirish, targ'ib qilish va saqlash bo'yicha yangi tashabbuslar va loyihalarni amalga oshirish.

Bu ishlar dastlabki qadamlar bo'lib, kelgusida yanada kengayib boradi. Xabaringiz bor, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida aniq maqsadlar qo'yilib, marra baland olindi. Ushbu strategiyaga muvofiq, 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot hajmini 2 barobar oshirib, 160 milliard dollarga, aholi jon boshiga daromad miqdorini esa o'rtacha 4 ming dollarga yetkazish reja qilingan.

To'rtinchidan, keyingi yillarda yurtimizda madaniy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish bo'yicha nihoyatda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Milliy madaniyatimizning ajralmas qismi bo'lgan adabiyot va san'at, ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish bo'yicha ham katta ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, Fransiya, Germaniya, Xitoy, Saudiya Arabistoni kabi davlatlarda namoyish etilgan milliy madaniyatimizning noyob namunalari dunyo jamoatchiligini hayratga solgani va ular O'zbekistonni o'zlari uchun yangitdan kashf etgani barchamizni quvontiradi.

Keyingi yillarda YuNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga yana 9 ta milliy merosimiz namunasi, Buxoro shahri "Ijodkor shaharlar tarmog'i"ga kiritilganini ta'kidlash lozim. YuNESKO Bosh qarorgohida buyuk bobomiz Abu Rayhon Beruniyning 1050 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlangani ham muhim voqea bo'ldi.

Xalqaro maydonda madaniy diplomatiyamizning o'rni tobora ortib bormoqda. YuNESKO Bosh konferensiyasi sessiyalari qariyb 40 yildan buyon faqat Parijda o'tkaziladi. 2025-yilda esa bu konferensiyaning sessiyasini birinchi marta boshqa shaharda, ya'ni, Samarqandda o'tkazish belgilandi. Ushbu nufuzli anjumanga Tashkilotga a'zo barcha davlatlardan vakillar tashrif buyurdi.

2024-yilda Toshkent shahrida Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti — TURKSOYning 30 yillik yubileyi yuqori saviyada o'tkazildi.

Bir asrdan ziyod tarix va an'analarga ega bo'lgan o'zbek kino san'ati ham taraqqiyot yo'liga chiqib bormoqda. Eng muhimi, xalqimizga manzur bo'ladigan kino asarlari paydo bo'lyapti. Chorak asrdan keyin Toshkent xalqaro kinofestivali qayta tiklandi. 2021-yildan buyon har yili jahonning 50 dan ortiq mamlakatidan yuzlab kino ijodkorlar O'zbekistonga tashrif buyurmoqda. Alisher Navoiy nomidagi kino saroyi zamonaviy qiyofaga ega bo'ldi, yangi "Renessans" kino uyi barpo etildi. Milliy filmlar yaratish uchun davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'lar hajmi ham tobora ortib bormoqda.

Ayni paytda bunday tizimli tadbirlar sirasiga yana quyidagilarni kiritish mumkin:

Birinchidan, yaqin va uzoq kelajakda madaniyat sohasidagi ishlarning natijadorligini ko‘tarish, yoshlarning bilim va dunyoqarashini boyitish, jamiyat a’zolarida sog‘lom mafkuraviy immunitetni tarbiyalash bo‘yicha olib boriladigan ishlar dasturini qabul qilish va uni amaliyotga tatbiq etish lozim. Bunda mamlakatimizning har bir fuqarosida jamiyatdagi yangiliklar, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning mazmun-mohiyati, qabul qilinayotgan qonunlar, qarorlar, davlat dasturlarining ahamiyati, dolzarbligi haqida tushuncha hosil qilishda targ‘ibot-tashviqot ishlarining o‘rni bo‘lakcha. Shu bois targ‘ibot ishlarini yanada kuchaytirish ko‘zda tutiladi.

Ikkinchidan, olib borilayotgan madaniy-ma’rifiy islohotlarni butun mamlakat miqyosida amalga oshirish, aholining barcha qatlamini qamrab olishiga erishish va bunda yangi usul va vositalardan foydalanish, bu sohada faoliyat yuritadigan tashkilotlar ishini muvofiqlashtirish va samaradorligini ta’minlashga doir choralar tizimi ishlab chiqililayotgani bejiz emas.

Uchinchidan, jamiyat rivoji, davlat taraqqiyoti uchun to‘siq bo‘ladigan ayrim illatlar – mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, poraxo‘rlik va eng achinarlisi, yurt taqdiriga, millat madaniyatiga befarqlik kabilarga qarshi tura oladigan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Xuddi shunday amaliy tadbirlardan biri, “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyatining tuzilganidir. Jamiyat a’zolari yetakchi mutaxassislar, olimlar va ijodkorlardan iborat bo‘lib, ular tizimli ravishda faoliyat yuritadilar.

To‘rtinchidan, “Madaniyat nazariyasi va tarixi”, “Madaniy tarbiya”, “Madaniy jarayonlar va texnologiyalar” yo‘nalishlarida ixtisoslashgan kengash tuzish va dissertatsiyalar himoyasi tashkil etilishi zarurati hozirgi davr ehtiyojiga aylandi.

Bularning barchasi sohaga doir tizimli tadqiqotlar o‘tkazish, olingan natijalar asosida amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish jarayoni takomillashuviga turtki beradi.

Beshinchidan, keyingi o‘quv yilidan boshlab mamlakatimizdagi barcha davlat va nodavlat oliy ta’lim o‘quv rejasiga bakalavriat bosqichida “Madaniyatshunoslik”, magistraturada “Kasbiy madaniyat” fanlari kiritilishi maqsadga muvofiq bo‘lur edi.

Oltinchidan, mamalakatimiz aholisining intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni hosil qilish, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish hamda yosh avlodda vatanparvarlik tuyg‘usini tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari bilan mustahkam hamkorlik o‘rnatildi. Jumladan, “Madaniyat va ma’rifat” telekanali hamda Xalqaro press-klubda ma’rifiy mavzudagi chiqishlar, tok-shoular, ijtimoiy rolik va boshqalar tayyorlanmoqda.

Yettinchidan, jamiyatda barqaror ijtimoiy-madaniy muhitni yaratish, oilalar, mahallalarda totuvlik, hamjihatlikni mustahkamlash, yoshlar madaniyatini yuksaltirish, ularni madaniy-ma’rifiy tadbirlarga faol jalb qilish maqsadida shahar va tumanlarda Madaniyat va ma’rifat maskanlari faoliyati yo‘lga qo‘yilmoqda.

Sakkizindan, sohaning ilmiy asoslarini yaratish, madaniyat targ‘iboti bo‘yicha ishlar samaradorligini oshirish maqsadida, madaniy-ma’rifiy yo‘nalishdagi ilmiy-tadqiqotlarlarga davlat buyurtmasini berish, innovasion, fundamental loyihalarni maqsadli moliyalashtirish tartibi ishlab chiqilishi bugungi kun tartibidagi masalaga aylandi.

Aytilganlardan xulosa qilinsa, jamiyatimizda sog‘lom madaniy muhitni yaratish va taraqqiy ettirish, shuningdek sohaga doir muammo va kamchiliklarni bartaraf etish borasida izchil faoliyat olib borilmoqda.

Aytilganlardan xulosa qilinsa, davlat va jamiyatimizda sog‘lom madaniy muhitni yaratish va taraqqiy ettirish borasida, shuningdek sohaga doir muammo va kamchiliklarni bartaraf etish borasida izchil faoliyat olib borilmoqda.

Madaniyati yuksak barkamol avlodni voyaga yetkazish va xalq madaniyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladigan yangi-yangi vazifalarni qamrab olgan dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Ba’zi noxolis nashrlar, asosan ijtimoiy tarmoqlar orqali g‘arazli maqsadlarda tarqatiladigan buzg‘unchi g‘oyalarga yo‘g‘rilgan materiallar, madaniyatimizga zid axloqiy unsurlar, turli mavzu va shakldagi axborotlarga qarshi tura olishda bu hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bu borada madaniy tarbiya uzluksizligini ta’minlashga xizmat qiladigan maxsus konsepsiyani ishlab chiqish davri keldi.

Ushbu konsepsiyani amalga oshirish rejasiga kiritiladigan ko‘plab tadbirlarning mazmun-mohiyatida har bir O‘zbekiston fuqarosida Vatanga muhabbat, elparvarlik, mardlik, jasorat, halollik, vijdonlilik, or-nomus kabi fazilatlarni tarbiyalash yotishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2022 y.

2. Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2021 y, 4-son).www.lex,uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-3022-son qarori. www.lex,uz.

4. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 1 va 2 jildlar –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2016.